

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI KONTEKSTIDA TURIZM TERMINLARINING LUG'AVIY JIHLARI

*Odilboyeva Umida Zafarjon qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

*[odilboyevaumida96@gmail.com](mailto:odilboyevaumida96@gmail.com) ,*

*+99897 259 44 76*

**Annotatsiya:** *Turizm sohasining global rivojlanishi turli sohalarni, jumladan, mehmonxona xizmatlari, transport, madaniyat va kommunikatsiyani o'z ichiga olgan terminologiyani yaratishga olib keldi. Har bir til o'zining madaniy, ijtimoiy va tarixiy kontekstida ushbu terminlarni o'zlashtirish, integratsiya qilish yoki o'zlashtira olishni o'ziga xos tarzda amalga oshiradi. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida turizm terminologiyasining lug'aviy asoslarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ikki til orasidagi o'xshashliklar va farqlarni taqqoslash, globalizatsiya ta'sirida mahalliy terminlarning o'zgarishini tahlil qilish va tilning turizm sohasidagi rolini muhokama qilishni maqsad qilgan.*

**Kalit so'zlar:** *lug'at, terminologiya, terminlar, atamalar, lingvistik omillar, yasama terminlar, affiks, suffiks, sayyohlik terminlari kategoriyalari, turizm, semantika, integratsiya, foydalanish, hosil qilish, lingvokulturologiya, til, madaniyat, o'zlashtirilgan so'zlar.*

## ЛЕКСИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ТЕРМИНОВ ТУРИЗМА В КОНТЕКСТЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

**Аннотация:** *Глобальное развитие туристической отрасли привело к созданию терминологии, охватывающей различные сферы, включая гостиничные услуги, транспорт, культуру и коммуникации. Каждый язык в своем культурном, социальном и историческом контексте по-своему осуществляет заимствование, интеграцию или адаптацию этих терминов. Данная статья посвящена изучению лексических основ туристической терминологии в английском и узбекском языках, сравнению сходств и различий между двумя языками, анализу изменений местных терминов под влиянием глобализации и обсуждению роли языка в сфере туризма.*

**Ключевые слова:** *словарь, терминология, термины, термины, лингвистические факторы, производные термины, аффикс, суффикс, категории туристических терминов, туризм, семантика, интеграция, использование, образование, лингвокультuroлогия, язык, культура, заимствованные слова.*

## LEXICAL ASPECTS OF TOURISM TERMINOLOGY IN THE CONTEXT OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

**Abstract:** *The global development of the tourism industry has led to the creation of terminology encompassing various spheres, including hospitality services, transportation, culture, and communications. Each language, within its cultural, social, and historical context, uniquely borrows, integrates, or adapts these terms. This article is devoted to examining the lexical foundations of tourism terminology in English and Uzbek languages, comparing similarities and differences between the two languages, analyzing changes in local terms under the influence of globalization, and discussing the role of language in the tourism sphere.*

**Keywords:** *dictionary, terminology, terms, terms, linguistic factors, derived terms, affix, suffix, categories of tourism terms, tourism, semantics, integration, use, formation, linguoculturology, language, culture, borrowed words.*

### KIRISH

Turizm – dunyo bo‘ylab katta ahamiyatga ega bo‘lgan, ko‘plab sohalarni o‘z ichiga olgan dinamik sanoatdir. Bu sanoatning rivojlanishi natijasida, turizmga oid atamalar maxsus soha sifatida shakllandi va turli xizmatlar, joylar va faoliyatlarni ifodalashda ishlatiladi. Ingliz tili global turizmning rasmiy tili bo‘lsa-da, har bir davlat ushbu terminlarni o‘z tiliga moslashtirib, o‘z madaniy va lingvistik strukturasi doirasida foydalanadi. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi turizm terminologiyasining lug‘aviy xususiyatlari, ularning leksik va semantik tuzilmalari o‘rganiladi. Har bir mamlakat turizm sohasining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shayotgan bo‘lsa-da, til bu jarayonda muhim vosita sifatida o‘z rolini o‘ynaydi. Ingliz tili global turizm sohasining asosiy aloqa tili sifatida keng tarqalgan bo‘lsa, o‘zbek tili o‘z madaniyati va milliy xususiyatlariga mos ravishda turizmga oid atamalarni shakllantirishda o‘ziga xos yondashuvni taqdim etadi.

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi turizm terminlarining lug‘aviy jihatlari o‘rganiladi. Har ikki tildagi asosiy turizm atamalari va ularning semantik mazmuni tahlil qilinadi. Boshqa tillardan olingan leksik elementlarning mahalliyashtirilishi, shuningdek, turizm sohasining rivojlanishi va xalqaro miqyosda aloqalar o‘rnatilishiga xizmat qiladigan turizm tilining yasalishi jarayonlarida qanday o‘zgarishlar yuz berayotganini ko‘rib chiqamiz. Maqola ingliz

va o'zbek tillarida turizm terminologiyasining leksik jihatlarini taqqoslashga va ularning madaniy kontekstdagi rolini o'rganishga qaratilgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Turizm terminologiyasi va uning lug'aviy jihatlarini haqida ko'plab ilmiy ishlar mavjud bo'lib, bu sohada turli tillarda olib borilgan tadqiqotlar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ingliz va o'zbek tillaridagi turizm terminlari bo'yicha tadqiqotlar tilshunoslik, madaniyatshunoslik, va kommunikatsiya sohalarida e'tiborga molikdir.

Fan tili millatning umumadabiy tili asosida shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois fan, ilm tili poydevorini umumadabiy tilning leksikasi yani leksikografiyasi, so'z yasalishi va grammatikasi tashkil qiladi. X. Xyuellning qayd etishiga ko'ra, terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo'llanadigan so'zlar yig'indisidir. Biz terminlar ma'nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz. Termin so'zini turlicha tushunchalari mavjud. Chunonchi, mantiqshunoslar (logiklar) uchun termin bu aniq obyektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yig'indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so'z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so'z termin bo'lishi mumkin. Fan va texnikada termin sun'iy o'ylab topilgan yoki tabiiy tildan olingan maxsus so'z sanaladi. Bunday so'zlarning qo'llanish sohasi u yoki bu ilmiy maktab vakillari tomonidan aniqlashtiriladi yoxud chegaralanadi. Umumtil terminlaridan farqli o'laroq, ilm-fan, texnikaga xos terminlar iyerarxik birliklar sifatida terminologik sistemalarga birlashadi, ular o'z ma'nolariga faqat ayni sistema ichida erishadi, bu sistemada ularga mantiqiy (tushunchaga oid) terminologik maydon mos keladi.

Fandagi har qanday rivojlanish, taraqqiyot ilmiy terminlarning yuzaga chiqishi yoki oydinlashishidan darak beradi. Termin va terminologik leksika tushunchalarini bir-biridan farqlash zarur. Terminlarning qo'llanish, tarqalish ko'lami muayyan terminologik sistema bilan cheklangan bo'lib, ular insonning faoliyati doirasidagi aniq uslubda harakat qiladi, voqelanadi. Terminologik leksika o'z tarkibiga tor mutaxassislik doirasidan ommaviy muloqot doirasiga ko'chgan noprofessional nutqiy kontekstda keng qo'llanadigan so'z va so'z birikmalarini qamrab oladi. Umumadabiy til doirasiga o'tgan termin o'z terminologiyasi, terminologik maydoni va sistemasidan yiroqlashadi, terminlik xarakteristikasidan

ajralib qoladi. Termin ta'rifi xususida ilmiy adabiyotlarda ko'pdan ko'p mulohazalar bildirilgan. Deyarli barcha ta'riflarda termin maxsus ilmiy-texnikaviy tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi tarzida tavsiflanadi.

O.Vinokurning fikricha, termin har doim aniq va ravshan bo'ladi. Terminlar sistemasi tili ongli shakllantiriladi. Zero, termin o'z-o'zidan, stixiyali tarzda paydo bo'lmaydi, balki zarurligi, jamiyatda unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi. A.Gerdning mulohazasiga ko'ra, termin ilm-fan taraqqiyotining muayyan bosqichida mavjud tushunchalarning asosiy xususiyatlarini aniq va to'laligicha aks ettiruvchi maxsus terminologik ma'noga ega tabiiy va sun'iy til birligi, ya'ni so'z yoki so'z birikmasidir. O.Axmanovanning ta'kidlashicha, terminologiya qaysidir fan o'z taraqqiyotining oliy darajasiga erishgandagina yuzaga chiqadi, ya'ni termin muayyan tushuncha aniq ilmiy ifoda kasb etgandan so'ng tan olinadi. Terminni notermindan farqlashning muhim vositasi uni ilmiy asosda ta'riflashning mumkin emasligidadir. V.G.Gak terminning ta'rifini berish bilan birga, uning mohiyatini ochib bergan va uning fikricha termin biror bir til so'z boyligidagi ma'lum o'rinni egallaydi. U ilmiy ishlarda terminga lug'aviy birliklarning alohida turi tarzida qaralishiga e'tiroz bildiradi hamda termin-funksiya, leksik birliklar qo'llanishining bir ko'rinishi, degan g'oyani ilgari suradi. V.P.Danilenkoning e'tirof etishicha, jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday jarayonning in'ikosi dastavval terminologiyada o'z ifodasini topadi yoki muayyan terminlarning transformatsion o'zgarishi oqibatida voqealanadi. D.Lottening ishlarida terminga alohida belgi sifatida emas, balki aniq sistemaning a'zosi shaklida qarash, munosabatda bo'lish zarurligi ta'kidlangan. Uning fikriga terminlarning terminlar sistemasidagi o'rni, mavqei muayyan tushunchaning tushunchalar sistemasidagi o'rni, mavqei bilan aniqlanadi. Terminologiya turli-tuman maktab, ilmiy yo'nalish va aniq fikrlarga xos kategorial apparatni ifodalovchi, terminlar sistemasiga birlashgan maxsus tushunchalar yig'indisi, majmui tarzida qaraladi.

Ilmiy qarashlarni nazariy jihatdan ko'rib chiqqan holda terminlarni ingliz va o'zbek tillaridagi o'niga nazar tashlaymiz. So'nggi yillarda tillarga jumladan ingliz tiliga bo'lgan e'tibor tobora kuchayib bormoqda, bu esa o'zbek tilida shuningdek ingliz tilida sohalarga oid atamalar ya'ni terminlar bilan ishlash ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Terminning ma'nosi, mohiyati, uning nomidan kelib chiqadi. Demak, "Terminus" lotincha "chegara, chek" so'zlaridan olingan bo'lib, bundan ko'rinib turibdiki termin chekli, chegaralangan yani, termin muayyan sohaga oid, aniqrog'i bir ma'noli so'zdir. Ingliz va o'zbek tillarida turizm sohasiga oid terminlarning lug'aviy jihatlari chuqur tahlil qilindi va globalizatsiya jarayonida ular qanday o'zgarishlarga uchraganligi, mahalliyashtirilishi va madaniy kontekstda qanday ishlatilishi o'rganildi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqotning natijalari ingliz va o'zbek tillarida turizm terminologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi va globalizatsiya ta'sirida qanday o'zgarishlar yuz berayotganini ochib beradi. Ingliz tili global turizm sohasining rasmiy tili sifatida faol rol o'ynaganligi sababli, uning atamalari ko'plab boshqa tillarda, shu jumladan o'zbek tilida keng qo'llanilmoqda. O'zbek tiliga ingliz tilidan olingan turizm atamalari ko'plab misollarni keltiradi, ammo bu jarayonda mahalliy til va madaniyatga moslashtirish zarurati doimo mavjud.

O'zbek tilida inglizcha terminlarning bevosita o'girilishidan tashqari, ular o'zbek madaniyatiga xos semantik qatlamlar bilan boyitiladi. Bu esa, turizm sohasidagi atamalarni anglashda tilning nafaqat leksik, balki madaniy jihatlarni ham inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi. Masalan: "*mehmondo'stlik*" atamasi inglizcha "*hospitality*" so'zining o'rni barchasini qamrab oladigan, kengroq tushunchaga ega. Bu o'zbek tilidagi turizm terminologiyasining milliy va madaniy o'ziga xosligini aks ettiradi.

Shu bilan birga, ingliz tilining ta'siri ba'zida o'zbek tilida yangi atamalarni yaratish, eski atamalarga yangilik kiritish va o'zlashtirilgan so'zlarni yangi semantik qatlamlar bilan to'ldirishga olib keladi. Bu jarayon, o'zbek tilidagi turizm terminologiyasining rivojlanishini va global turizm sanoatiga integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Natijada, ingliz va o'zbek tillaridagi turizm terminologiyasining lug'aviy jihatlari turizm sanoatining global va lokal o'zaro aloqalarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Bu terminlar nafaqat sayohat va turizm sohasidagi xizmatlar va mahsulotlarni tavsiflashda, balki har ikki til va madaniyatning o'zaro ta'sirini ham

ifodalaydi. Shunday qilib, turizm terminologiyasining lug'aviy tahlili tilshunoslikda, madaniyatshunoslikda va turizm sohasidagi aloqalarda yuksak ahamiyatga ega.

### XULOSA

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida turizm terminologiyasining lug'aviy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, globalizatsiya jarayonlari va madaniy aloqalar kontekstida tilning qanday rivojlanishini ko'rsatdi. Maqola davomida ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girilgan turizm atamalarining leksik va semantik o'zgarishlari, mahalliyashtirish va moslashtirish jarayonlari, shuningdek, terminlarning madaniy kontekstdagi rolga e'tibor qaratildi. Ingliz tilining global tili sifatida turizm sohasidagi terminlarni yaratish va tarqatishda muhim rol o'ynaganligi ta'kidlandi. Ingliz tilidan olingan ko'plab atamalar, "tourism", "hotel", "visa", va "tourist" kabi so'zlar o'zbek tiliga bevosita o'girilgan yoki fonetik o'zgarishlar bilan qo'llanilmoqda. Biroq, ba'zi atamalar o'zbek tilida semantik jihatdan boyitilib, madaniy kontekstda yangi ma'nolarni ifodalaydi.

Shuningdek, o'zbek tilida inglizcha turizm terminlari mahalliyashtirilgan, bu jarayon esa til va madaniyatning o'zaro ta'sirini, shuningdek, global turizm sanoatiga integratsiyani ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbek tilida turizm sohasiga oid terminlar, ingliz tilidagi atamalarga nisbatan o'ziga xos semantik qatlamlar va madaniy kontekstlar bilan boyitilgan.

Bunday tahlillar, ingliz va o'zbek tillarida turizm terminologiyasining rivojlanishini, madaniyatlararo aloqalarni va tilshunoslikdagi yangi yondashuvlarni ko'rsatib beradi. Shu bilan birga, turizm sohasida samarali kommunikatsiya va xizmat ko'rsatish uchun tilning rolini tushunish muhimdir. Maqola, turizm terminologiyasining lug'aviy tahlilini olib borish orqali global va mahalliy til o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Sobirova Z. R. O'zbek sayyohlik terminlarining ingliz tiliga tarjimasida uchraydigan ayrim muammolar //So'z san'ati xalqaro jurnali. Toshkent . 2020. -B 128
2. Abduqodirov U. N. Turizmga oid atamalarining lingvokulturologik xususiyatlari. International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education, Germany. 2022. -B 234

3. Yunusova F. J. Ingliz va O'zbek tillarida turizm terminologiyasi va uning rivojlanish bosqichlari. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot. Onlayn konferensiya materiallari 2022.-B. 225
4. Conway B. E., Birss V., Wojtowicz J. The role and utilization of pseudocapacitance for energy storage by supercapacitors //Journal of power sources. – 1997. – T. 66. -B.114.
5. Kuchrarova G. Turizm terminologiyasining nazariy masalalari va tadqiqi. Academic Research in Educational Sciences. 2022.-B.580
6. Belan E. Osobennosti formirovaniya novix terminosistem.Avtoref.diss. kand. filol. nauk. – Moskva, 2009.-B.156
7. Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. – Toshkent, 2011.-B. 129
8. Ashurov.N.O. Abdullayeva.F.S. Ingliz va o'zbek tillarida biznes va turizm terminlarini ishlatish metodikasi. Science and Education. Scientific Journal. 2022. P.605-610